

BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Absamatov Anvar Ergashevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, i.f.n.,

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bank aktivlari samaradorligini oshirishning an'anaviy va zamonaviy usullari hamda ushbu jarayon orqali milliy iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyatini jadallashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, moliyaviy sektorni izchil isloh qilish jarayonida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ilg'or bank amaliyotlarini joriy etish va banklar o'rtasidagi raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qiluvchi huquqiy asoslar o'rganilgan. Shuningdek, bank aktivlari samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yuzasidan muallifning yondashuvlari hamda amaliy takliflari bayon etilgan.

Калит so'zlar: tijorat banki, raqamli transformatsiya, innovatsion bank, bank mahsulotlari, boshqaruv tuzilmasi, bank strategiyasi, aktivlar, bank aktivlari, bank passivlari, marja, kredit, depozit, foizli daromad, foizsiz daromad, xarajatlar.

Аннотация

В статье проанализированы традиционные и современные методы повышения эффективности банковских активов в Республике Узбекистан, а также возможности ускорения деятельности коммерческих банков через развитие данной сферы. Особое внимание уделено мерам, реализуемым в процессе последовательных реформ финансового сектора, внедрению передовых практик ведения банковского бизнеса и созданию правовых условий для усиления конкурентной среды. Также рассматриваются существующие проблемы повышения эффективности банковских активов и предложены авторские подходы и практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: коммерческий банк, цифровая трансформация, инновационный банк, банковские продукты, структура управления, банковская стратегия, активы, банковские активы, банковские пассивы, маржа, кредит, депозит, процентные доходы, беспроцентные доходы, расходы.

Abstract

This article analyzes the traditional and modern methods for improving the efficiency of bank assets in the Republic of Uzbekistan and explores opportunities to accelerate the activities of commercial banks through the development of this area. Special attention is given to the measures implemented during the consistent reform of the financial sector, the introduction of advanced banking practices, and the establishment of legal conditions aimed at strengthening competition within the sector. Furthermore, the study identifies current challenges in enhancing bank asset efficiency and presents the author's approaches and practical recommendations for addressing these issues.

Keywords: commercial bank, digital transformation, innovative bank, banking products, management structure, bank strategy, assets, bank assets, bank liabilities, margin, credit, deposit, interest income, non-interest income, expenses.

KIRISH

Banklararo raqobat muhitining rivojlanib borishi bank aktivlarini joylashtirish, ularning samaradorligini oshirishda an'anaviy usullardan voz kechish hamda bank amaliyotiga samaradorlikni baholashning yangi va zamonaviy usullarini joriy etishni rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may PF-5992-son "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ¹, mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida: "kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash" ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan [1].

Tijorat banklarida kredit skoringi usulini qo'llash aktivlar samaradorligini oshirish bilan bog'liq quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- Mijozlarning kredit tarixini o'rganish asosida yuqori salohiyatga ega qarz oluvchini aniqlash imkoniyati mavjud. Mazkur mezon kredit sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi;
- Skoring tizimida qarzdorlikni undirishning uzoq muddatli istiqbolini aniqlashga e'tibor qaratilishi aktivlarning muammoga aylanish ehtimolini kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi banklari amaliyotida kredit skoringini talab darajasida o'tkazish bilan bog'liq bir qator muammoli jihatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, tijorat banklari kredit skoringi usulini, asosan, kredit siyosatida kreditlashning elementlaridan biri sifatida belgilash bilan cheklanib qolmoqda. Qarzdorlarning moliyaviy holatini baholash jarayonida esa kredit skoringi usulidan umumiy tartibda foydalanilmoqda. Tijorat banklari ichki me'yoriy hujjatlarida kredit skoringi usuliga qo'yiladigan talablar va uni qo'llash jarayoni atroflicha belgilanmagan.

Ikkinchidan, kredit skoringi usulini qo'llashning samaradorligi qarz oluvchining moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlar manbasining kengligiga bog'liq. Shu bois banklarda qarz oluvchilar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va qayta ishlash usullarini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

Uchinchidan, skoring tizimining mohiyati faqat qarz oluvchining moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni kompleks tahlil qila olishda namoyon bo'lmaydi. Skoring tizimidan to'laqonli foydalanish uchun tizimlashtirilgan ma'lumotlar asosida aniq bank

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-may PF-5992-son "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>

kreditlash xulosasini tayyorlay oladigan malakali mutaxassislar xizmatiga ehtiyoj seziladi. Shu sababli banklarda xodimlar almashuvini kamaytirgan holda, malakali kreditlash kadrlarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Stress-testlash usuli. XX asrning 90-yillarida yuzaga kelgan moliyaviy inqirozlar banklar aktiv va passivlarini boshqarish jarayonida qo'llanilayotgan moliyaviy instrumentlarning bir qator muhim kamchiliklari mavjudligini ko'rsatdi. Bunday vaziyatdan chiqish uchun xalqaro moliya institutlari a'zo davlatlarning bank tizimidagi moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish ustida izlanishlar olib bordi. Mazkur jarayonda alohida portfellar riskini baholash imkonini beradigan boshlang'ich stress-testlash usuli ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy xizmatlarni yetkazib berish va iste'mol qilish borasida, shuningdek texnologik rivojlanish natijasida biznes, bank va moliya tizimlarini raqamlashtirish ta'sirida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bank xizmatlari bozorida internet va mobil texnologiyalarni qo'llash hamda ulardan foydalanish banklarning xizmat ko'rsatish tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ko'plab elektron kanallar orqali elektron bank xizmatlarini rivojlantirish mijozlarga qo'shimcha qulayliklar taqdim etish imkonini bermoqda. Mazkur holatda rivojlangan davlatlar bank tizimida moliyaviy xizmatlar ko'payib borayotgani masofaviy bank xizmati ko'rsatish ahamiyatini yanada oshirgan. Natijada butun dunyo bo'ylab yirik banklar tomonidan bank xizmatlarining turli xil variantlari onlayn rejimda taqdim etilmoqda.

Xususan, A.I. Jukov bank xizmatlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Tijorat banklari xizmatlari — bank foydasiga ma'lum bir haq olish evaziga, mijozning talabiga binoan bank operatsiyalarini bajarish» [2].

Bugungi kun bank sohasining rivojlanish tendensiyasi xizmatlarni elektron tarzda yuritishga o'tishdir. Bu borada ilk fundamental tadqiqot Xalqaro hisob-kitoblar banki qoshida 1974-yilda tashkil etilgan Bank nazorati bo'yicha Bazal qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan. Mazkur qo'mita tomonidan elektron bank xizmatlari bo'yicha ishchi guruh tashkil etilgan. Bank nazoratchilari uchun xalqaro elektron bank ishi masalalari "Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors" (2000-y.) ma'ruzalari ushbu guruh faoliyatining natijasi bo'lgan [3]. Mazkur muammoning turli jihatlariga Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va O'nlik guruhining (G10) tadqiqotlarida ham sezilarli darajada e'tibor qaratilgan [4].

Mijozlarning kreditga qobiliyatini baholash usullariga doir tadqiqotlarda M.N. Konyagina va Ya.A. Klishina korporativ mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash modellarini tasnifiy va kompleks turlarga ajratadi [5].

O'zbekiston bank sohasidagi yetuk iqtisodchi olimlaridan biri Sh. Abdullayeva jahon amaliyotida mijozning kreditga layoqatlilik darajasini baholashning uchta an'anaviy modeli mavjudligini ta'kidlaydi. Bular: mustaqil reyting agentliklari baholash modeli, statistik usullar asosida baholash modeli hamda to'g'ridan-to'g'ri ekspert baholash modeli [6].

Aktivlar sifatini baholash bo'yicha — reytinglash usuli. Jahon tajribasida reyting tizimining shakllanishi xalqaro moliya institutlari tomonidan mamlakatlarning

muvaffaqiyatlarini o'lchash zarurati bilan bog'liq bo'lgan. Jumladan, Jahon banki tomonidan mamlakatlarga qarz va grant mablag'lari ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda "iqtisodiy siyosat va institutsional rivojlanishni baholash" uslubining ishlab chiqilishi reyting tizimining rivojlanishiga zamin yaratgan. Jahon iqtisodiy forumi esa 1979-yildan boshlab jahon mamlakatlarining doimiy global reytingi hamda raqobatdoshligi to'g'risidagi hisobotni chop eta boshlagan.

O'z navbatida, sarroflik idoralari ushbu to'plangan pul mablag'larini boshqa shaxslarga qarzga berish va olish amaliyotlarini ham boshlagan. Asta-sekin turli xildagi ssudalarni berish va pul mablag'larini jalb qilish hisobidan sarroflik ishi kengayib, kreditlar beruvchi, omonatlarni qabul qiluvchi va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar paydo bo'la boshlagan. Moliyaviy munosabatlarning bu tarzda rivojlanishi hozirgi banklarning aktiv amaliyotlari shakllanishiga asos solgan [7].

Tijorat banklarida aktivlar samaradorligini baholashda stress-test o'tkazishning dasturiy hisob-kitoblarini shakllantirish nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Bu jarayonga dastur yaratuvchi kompaniyalarni keng miqyosda jalb etish maqsadga muvofiq. O'z navbatida, tijorat banklari xodimlari dasturlashtirilgan stress-testlash natijalarini tahlil qilish va ularning asosida qaror qabul qilish uchun umumlashtirish malakasini egallashlari zarur.

METODOLOGIYA

Maqolada me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, shuningdek iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari tomonidan aktivlarni diversifikatsiyalash usuli bank aktivlari portfelining optimal tarkibiy tuzilmasini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur usulda aktiv amaliyotlardagi tarmoq risklarini pasaytirish va barqaror daromadlilikni ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

Aktivlar portfeli va omillar tahlili usullari jumlasida kredit skoringi usuli alohida o'rin tutadi. Bu usul jismoniy shaxslarga iste'mol kreditlarini ajratishda ularning moliyaviy holatini aniqlash, maqbul qarz oluvchini tanlab olish muammosini hal etish maqsadida 1940-yillarda amerikalik iqtisodchi D. Dyuran tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlab bu usul qarz oluvchi jismoniy shaxslarning moliyaviy holatini baholash modeli sifatida shakllangan bo'lsa-da, hozirgi kunda u qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholashning ishonchli va universal usuli sifatida keng qo'llanilmoqda.

Kredit skoringi usuliga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- Ushbu usulni qo'llash orqali qarz oluvchilarning kredit reytingi ko'rsatkichlari aniqlanadi;
- Kredit reytingini aniqlash jarayonida mijozlar moliyaviy holatidan kelib chiqib muayyan toifalar (sinf)ga ajratiladi;

- Kredit skoringi usuli qarz oluvchining moliyaviy holatini ballik tizim asosida baholashni nazarda tutadi;

- Skoring tizimi qarz oluvchining kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini baholashdan tashqari, ularning defolt holatiga uchrash ehtimolini hamda kreditni qisman qoplash bo'yicha ehtimolli istiqbolni baholash jarayonlarini ham o'z ichiga oladi.

Tijorat banklarida kredit skoringi usulini qo'llash aktivlar samaradorligini oshirish bilan bog'liq quyidagi afzalliklarni beradi:

- Mijozlarning kredit tarixini o'rganish asosida yuqori salohiyatga ega qarz oluvchini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lib, bu mezon kredit sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega;

- Skoring tizimida qarzdorlikni undirishning uzoq muddatli istiqbolini aniqlashga qaratilgan yondashuv aktivlarning muammoga aylanish ehtimolini pasaytiradi (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashni tashkil etish tartibi¹

Bosqich	Bosqich nomi	Jarayon ishtirokchilari
1-bosqich	Mijoz (kafil)ni identifikatsiya qilish	Mijoz / Front-ofis xodimi / FACE ID tizimi
2-bosqich	Bank dasturi orqali kredit olish uchun ariza shakllantirish	Bank dasturi / Garov tizimlari / Anderayter / Tashqi tizimlar / Front-ofis xodimi / ABT / Mijoz
3-bosqich	Kredit olish uchun ariza bo'yicha huquqiy qaror qabul qilish	Bank dasturi / Garov tizimlari / Anderayter / Tashqi tizimlar / Front-ofis xodimi / ABT / Mijoz
4-bosqich	Kredit shartnomasini tuzish	Bank xodimi / Tashqi tizimlar / Old ofis xodimi / ABT / Mijoz
5-bosqich	Kredit ajratish	Front-ofis xodimi / Midi-ofis xodimi / Bosh bank ofisi / ABT / Tashqi tizimlar
6-bosqich	Kredit berishni rad etish	Front-ofis xodimi / Yuqori darajadagi xodimlar / Sotuvchi / Tashqi tizimlar
7-bosqich	"Jismoniy shaxslarga kredit berish" jarayonining samaradorligini oshirish	Bosh ofis bo'limi (biznes jarayon egasi) / Muvaffaqiyatli tahlil bo'limlari / 2-daraja himoya liniyasi / Vakolatli organ

Skoring tizimi natijalari bir qator omillarga bog'liq hisoblanadi. Skoring ko'rsatkichlarini hisoblashda xalqaro bank amaliyotida mijozlarning kredit tarixidan tashqari bir qator omillar e'tiborga olinadi. Jumladan:

- Jismoniy shaxsning oilaviy holati;
- Banklardagi hisobvaraqlari va aylanmalarga oid ma'lumotlar;
- To'lovlar tarixi, xususan, soliqlar, kommunal va boshqa to'lovlar bo'yicha ma'lumotlar;

¹ Muallif ishlanmasi

- Mijozning muddatli to'lovlar bo'yicha qarzdorliklari to'g'risidagi ma'lumotlar;


- Mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlash uchun turli modellashtirish usullari va matematik hisob-kitoblardan foydalaniladi.

Shu o'rinda, O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida kredit skoringini talab darajasida o'tkazish bilan bog'liq bir qator muammoli jihatlar mavjudligini qayd etish joiz.

Birinchidan, tijorat banklari kredit skoringi usulini, asosan, kredit siyosatida kreditlashning elementlaridan biri sifatida belgilash bilan cheklanib qolmoqda. Qarzdorlarning moliyaviy holatini baholash jarayonida esa kredit skoringi usulidan umumiy tartibda foydalanilmoqda. Tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlarida kredit skoringi usuliga qo'yiladigan talablar va ushbu usulni qo'llash jarayoni atroflicha belgilanmagan.

Ikkinchidan, kredit skoringi usulini qo'llashning samaradorligi qarz oluvchining moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlar manbasining kengligiga bog'liq. Shu bois banklarda qarz oluvchiga oid ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va qayta ishlash usullarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Uchinchidan, skoring tizimining mohiyati faqat qarz oluvchining moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni kompleks tahlil qila olishda namoyon bo'lmaydi. Skoring tizimidan to'laqonli foydalanish uchun tizimlashtirilgan ma'lumotlar asosida aniq bank kreditlash xulosasini tayyorlay oladigan malakali mutaxassislar xizmatiga ehtiyoj mavjud. Shu sababli banklarda xodimlar almashuvini kamaytirgan holda malakali kreditlash xodimlarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim (1-rasm).



1-rasm. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YAIMga nisbati tafovuti¹, foiz band

2023-yilning birinchi yarmida jami kreditlar qoldig'ida jismoniy shaxslarga

¹ Markaziy bank sayti ma'lumotlari

ajratilgan kreditlar ulushi qariyb 30 foizga yetdi va YAİMga nisbatan tafovutning ijobiy kengayishini ko‘rsatdi. Ushbu davrda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘ining yillik o‘shish sur‘ati 54 foizni tashkil etdi. Bunga nomutanosib ravishda nominal YAİM atigi 19 foizga o‘tdi. Bunday tendensiyalar, bir tomondan, kreditlarga bo‘lgan to‘yinmagan talab mavjudligini va bu holatni iqtisodiyotdagi tabiiy jarayon sifatida baholash mumkinligini anglatadi. Boshqa tomondan esa, aholining qarz yuki darajasi sezilarli darajada oshib borayotganini, ularning daromad va boshqa iqtisodiy shoklarga nisbatan zaiflashayotganini ko‘rsatadi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditning YAİMga nisbati tafovuti chakana kreditlash sektorida zaifliklarning to‘planayotganini aniqlash imkonini beradi. Bunda ushbu nisbatning o‘zining uzoq muddatli trendi bilan tafovutining ijobiy kengayishi xatarlar ortib borayotganidan darak beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mijozlarga kredit ajratish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda samarali mexanizmni joriy etishda quyidagi jarayonlarga alohida e‘tibor qaratish lozim:

- Yuqori malakali andarrayterlar guruhlarini tashkil qilish;
- Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish, modulli (“bir xil”) kredit mahsulotlarini joriy qilish hamda ularning bank kredit portfelidagi ulushini oshirish orqali tezkor va kam xarajatli chakana bank xizmatlarini kengaytirish;
- Banklarning skoring tizimlarini yanada takomillashtirish.

Tijorat banklarida aktivlar portfeli samaradorligiga oid axborotlarni haqqoniy va o‘z vaqtida taqdim etish mexanizmining yo‘lga qo‘yilmaganligi bank Boshqaruvining mavjud muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqishiga to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini ta‘minlashda aktivlarni joylashtirishga oid tarkibiy tuzilmalarning faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda bank Kengashi tomonidan bank Boshqaruvi raisi va a‘zolari, ichki audit bo‘limi rahbarlarining bank aktivlari, kredit va investitsiya portfellari, daromadlilik va likvidlilik ko‘rsatkichlari holati bo‘yicha hisobotlarini har chorakda muntazam ravishda ko‘rib chiqish va zarur hollarda ta‘sirchan choralarni belgilash amaliyoti keng joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, aktivlarni diversifikatsiya qilish, kredit portfelini yaxshilash hamda tavakkalchiliklarni samarali boshqarishni kuchaytirish maqsadida har bir bankda bevosita bank Kengashiga bo‘ysunuvchi Tavakkalchiliklarni nazorat qilish qo‘mitalari tashkil etildi. Tijorat banklarida aktivlar samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy yondashuvlar bank aktivlarini maqbul joylashtirish va ularni doimiy monitoring qilish jarayoniga qat‘iy talablar qo‘yishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизimini ислох қилиш стратегияси тўғрисида”ги фармони // Қонун

хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 10.06.2022 й., 06/22/152/0507-сон.

2. Жуков А.И., Банковская система России. М.: Проспект, 2009. с. 186.

3. Electronic Banking Group Initiatives and White Papers. — Basel Committee for Banking Supervision. — Basel, October 2000. — 27 p.

4. <http://www.bis.org> — сайти маълумотлари асосида тайёрланган.

5. Конягина М.Н., Клишина Я.А. Вопросы совершенствования подходов к оценке кредитоспособности //Деньги и кредит.- М.: 2015.- №10. (67-68-бетлар).

6. Ш.Абдуллаева. Мижознинг молиявий ҳолатини баҳолашда замонавий ёндашув //Бозор, пул ва кредит. – Т.: 2017.-№4. (39-бет).

7. Ташматов Ш.Х. Ўзбекистонда банк тизимининг шаклланиши ва ривожланиши. Докторлик диссертацияси.-Т.: 2006. (16-бет).

8. «Тижорат банкларида активлар сифатини таснифлаш ва активлар бўйича эҳтимолий йўқотишларни қоплаш учун захиралар шакллантириш ҳамда улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида»ги Низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2015 йил 14 июлда 2696-сон билан рўйхатга олинган.–Т.: «Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами», 2015 йил 20 июль, 28-сон.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**